

TA'LIM TURLARI VA TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Boltaboyeva Sadoqatoy Egamberdi qizi

Jo'rayeva Malika Mavlonbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi,

Turdiyeva Shohida Anvarjonova

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934450>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning asosiy turlari — formal, norformal, informal, masofaviy va inklyuziv ta'limning mazmuni, xususiyatlari hamda afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishning turli shakllari: dars, amaliy mashg'ulot, seminar, ma'ruza, mustaqil ta'lim, guruhli ish va onlayn darslar batafsil tahlil qilingan. Maqola zamonaviy pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda turli ta'lim shakllaridan oqilona foydalanishning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim turlari, formal ta'lim, norformal ta'lim, informal ta'lim, masofaviy ta'lim, inklyuziv ta'lim, ta'limni tashkil etish shakllari, dars, seminar, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim, onlayn ta'lim, pedagogik jarayon.

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Boltaboyeva Sadoqatoy Egamberdi qizi

Jo'rayeva Malika Mavlonbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi,

Turdiyeva Shohida Anvarjonova

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası o'qtuvchisi

Аннотация: В статье рассматриваются содержание, особенности и преимущества основных видов образования – формального, неформального, информального, дистанционного и инклюзивного образования. Также подробно анализируются различные формы организации образовательного процесса: уроки, практические занятия, семинары, лекции, самостоятельная работа, групповая работа и онлайн-уроки. Раскрывается важность рационального использования различных форм обучения для повышения эффективности современного педагогического процесса.

Ключевые слова: виды образования, формальное образование, неформальное образование, информальное образование, дистанционное образование, инклюзивное образование, формы организации образования, уроки, семинары, практические занятия, самостоятельная работа, онлайн-обучение, педагогический процесс.

Asosiy qism: Ta'lim

Ta'lim – bu insonning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Ta'lim jarayonida shaxs atrof-muhit, jamiyat, fan va texnika haqida ma'lumotlar oladi, ularni anglaydi va amalda qo'llashni o'rganadi. Ta'lim nafaqat bilim berish, balki insonning fikrlashi, dunyoqarashi, ma'naviyati va madaniy saviyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar nazariy bilim egallaydi, amaliy mashqlar orqali o'z malakalarini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ta'lim shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi, kasb tanlashi va kelajak hayotiga tayyorgarlik ko'rishida muhim omil hisoblanadi.

Ta'limning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos maqsad, mazmun va tashkiliy jihatlarga ega. Quyida eng asosiy turlar ko'rib chiqiladi.

Formal ta'lim – bu davlat yoki rasmiy tashkilot tomonidan belgilangan o'quv dasturi va reja asosida, maktab, kollej, litsey yoki universitet kabi ta'lim muassasalarida tizimli ravishda olib boriladigan ta'lim shaklidir.

Norformal ta'lim – bu rasmiy maktab yoki universitet dasturi asosida emas, balki bolaning ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlariga mos ravishda tashkil etiladigan ta'lim shaklidir.

Masofaviy ta'lim – bu o'quvchilar va o'qituvchilar bir joyda jismonan bo'lmasdan, texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari orqali olib boriladigan ta'lim shaklidir.

Inklyuziv ta'lim – bu har bir bolaning, uning qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatidan qat'i nazar, bir xil ta'lim muhitida o'qishi va rivojlanishiga imkon beruvchi ta'lim shaklidir.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish o'quvchilar bilimining chuqur va izchil bo'lishiga xizmat qiladi. Tashkiliy shakllar ta'lim jarayonining ko'rinishiga, uslubiga va metodiga bog'liq.

Dars – bu ta'lim jarayonining asosiy birligi bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ma'lum bir mavzu yoki fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Amaliy mashg'ulot – bu o'quvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim jarayonining bir turi.

Seminar – bu o'quvchilar va o'qituvchi (yoki mutaxassis) o'rtasida muayyan mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'rganish, muhokama qilish va tahlil qilishga qaratilgan ta'lim shaklidir.

Mustaqil ta'lim – bu o'quvchining o'z bilimini, ko'nikma va malakasini o'zi, o'z vaqtini va usullarini belgilab, mustaqil ravishda o'rganish jarayonidir.

Maruza – bu o'qituvchi yoki mutaxassis tomonidan ma'lum bir mavzu bo'yicha o'quvchilar yoki tinglovchilar oldida bilim berish, tushuntirish va izohlash shaklidagi ta'lim jarayonidir.

Xulosa. Ta'lim turlari va ta'limni tashkil etish shakllari pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Formal, norformal va informal ta'lim bir-birini to'ldiradi, masofaviy ta'lim esa zamonaviy ehtiyojlarga moslashadi. Turli tashkil etish shakllari — dars, amaliy mashg'ulot, seminar, onlayn darslar — ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda pedagoglar ushbu turlarni uyg'unlashtirgan holda qo'llashi ta'lim sifatini yuqori darajaga olib chiqadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari va farmonlari: Ta'lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. – Toshkent.
3. Mavlonova R., To'xtayev B. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Hasanboeva O., Yo'ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Ziyomuhamedov B., Abduqodirov A. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Jalolov J. Ta'lim metodlari va ularni qo'llash amaliyoti. – Toshkent: Sharq, 2017.